



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атхамович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODEL.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODELI	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIVAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	291
Nomezova Qumri Isoyevna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	



ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH

Alikulov Samar Abdirashidovich

TDIU Samarqand filiali, i.f.n., professor

E-mail: alikulovs1953@gmail.com

ORCID: 0009-0009-0480-7104

Annotatsiya. Maqolada atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologik iqtisodiyotning mazmuni, shakllanishi hamda ularning turizm xizmatlari bozorida qo'llanilishi tahlil qilinadi. Ushbu yo'nalishlarning rivojlanishi, barqarorlikka qaratilgan yondashuvlari, turizm infratuzilmasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ekologik va atrof-muhit iqtisodiyotining asosiy tushunchalari, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik vositalar hamda bozor muvaffaqiyatsizligi masalalari yoritiladi. Shuningdek, biosfera, inson yaratgan va ijtimoiy kapitalning turizmdagi ahamiyati, barqarorlikning turli spektrlari hamda ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirlari o'rganiladi. Maqolada transdissiplinar yondashuv asosida turizm sohasida ekologik va iqtisodiy masalalarni integratsiyalash zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit iqtisodiyoti, ekologik iqtisodiyot, turizm, barqaror rivojlanish, tabiiy kapital, inson yaratgan kapital, ijtimoiy kapital, ekoturizm, resurslarni boshqarish, ekologik siyosat.

Abstract. The article analyzes the content, formation, and application of environmental economics and ecological economics in the tourism services market. It examines the development of these fields, their sustainability-oriented approaches, and the economic processes related to tourism infrastructure and the rational use of natural resources. The study discusses the key concepts of environmental and ecological economics, issues of rational resource use, environmental instruments, and market failures. In addition, the role of the biosphere, human-made capital, and social capital in tourism, as well as different spectra of sustainability and their economic, environmental, and social impacts, are explored. The article substantiates the need to integrate environmental and economic issues in the tourism sector based on a transdisciplinary approach.

Key words: environmental economics, ecological economics, tourism, sustainable development, natural capital, human-made capital, social capital, ecotourism, resource management, environmental policy.

Аннотация. В статье анализируются содержание, становление и применение экономики окружающей среды и экологической экономики на рынке туристских услуг. Рассматриваются процессы развития данных направлений, их ориентация на устойчивость, а также экономические аспекты, связанные с туристской инфраструктурой и рациональным использованием природных ресурсов. Освещаются основные понятия экологической и природоохранной экономики, вопросы рационального использования ресурсов, экологические инструменты и проблемы рыночных сбоев. Кроме того, изучается значение биосферы, созданного человеком и социального капитала в туризме, а также различные спектры устойчивости и их экономические, экологические и социальные эффекты. В статье обосновывается необходимость интеграции экологических и экономических вопросов в сфере туризма на основе трансдисциплинарного подхода.

Ключевые слова: экономика окружающей среды, экологическая экономика, туризм, устойчивое развитие, природный капитал, созданный человеком капитал, социальный капитал, экотуризм, управление ресурсами, экологическая политика.



KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy va ekologik sharoitlarda turizm sektori nafaqat iqtisodiy faoliyat sohasi, balki tabiiy resurslar va biosfera bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks tizim sifatida qaraladi. Atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologik iqtisodiyot turizm infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekoturizmni barqaror rivojlantirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi turizm sohasida atrof-muhit va ekologik iqtisodiyotning integratsiyalashgan modelini hamda ularning barqarorlik konsepsiyalari asosidagi iqtisodiy tahlilini taqdim etishdan iborat.

Maqolada ushbu yo'nalishlarga oid ilmiy nazariyalar, ularning tarixiy rivojlanishi hamda turizm infratuzilmasining atrof-muhitga ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, resurslarni baholash, ekologik va iqtisodiy vositalardan foydalanish hamda barqarorlikning turli darajalari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Atrof-muhit va ekologik iqtisodiyotning shakllanishi XIX asrdan boshlab qishloq xo'jaligi, baliqchilik hamda o'rmon resurslarini boshqarish masalalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Xotellingning qayta tiklanmaydigan resurslardan optimal foydalanish bo'yicha ilmiy ishlari mazkur yo'nalishning shakllanishiga muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Pirs va Terner, shuningdek, Gilpin va Holden kabi olimlarning tadqiqotlarida ekologik va atrof-muhit iqtisodiyotining metodologik asoslari hamda barqarorlik tamoyillari chuqur tahlil etilgan.

Ekologik iqtisodiyot tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy fanlarni qamrab olgan transdissiplinar yondashuvga tayanadi. Daly va Lovelock tomonidan ilgari surilgan "barqaror holat iqtisodiyoti" hamda bioetika konsepsiyalari barqarorlikning turli darajalarini ilmiy asosda belgilab beradi. Cater va Fennell esa turizm va ekoturizm sohasida ekologik tizimlarning ahamiyatini amaliy misollar orqali yoritib bergan.

Atrof-muhit iqtisodiyoti esa an'anaviy mikroiqtisodiy tahlilga tayanib, resurslardan oqilona foydalanish, bozor muvaffaqiyatsizliklarini bartaraf etish hamda ekologik siyosat vositalari orqali turizm faoliyatining atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan yondashuv sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot atrof-muhit va ekologik iqtisodiyotning turizm sohasidagi qo'llanilishini tahlil qilishga qaratilgan. Metodologik yondashuv ilmiy jurnallarda qabul qilingan standartlar asosida shakllantirildi. Tadqiqot obyekti sifatida turizm sohasidagi iqtisodiy faoliyat va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlar, predmet sifatida esa turizmning mahalliy darajada atrof-muhitga ta'siri, barqaror rivojlanishga qo'shayotgan hissa hamda ekologik va atrof-muhit iqtisodiyotining tahliliy usullari belgilandi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, soddalashtirilgan nazariy tahlil orqali ekologik va atrof-muhit iqtisodiyotining nazariy asoslari, barqarorlik konsepsiyalari hamda turizm bilan bog'liq tadqiqotlar umumlashtirildi. Solishtirma tahlil usuli yordamida atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologik iqtisodiyotning turizm sohasidagi qo'llanilish jihatlari taqqoslandi, bu esa sohalarning transdissiplinar xususiyatlarini, resurslardan foydalanish strategiyalarini hamda barqarorlik spektridagi yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, turizm infratuzilmasi va resurslarni baholash usullari asosida yangi dam olish zonalar, ekoturizm loyihalari va mahalliy turistik obyektlarning atrof-muhitga ta'siri moliyaviy hamda nomoliyaviy ko'rsatkichlar orqali baholandi. Modellastirish usuli esa turizm iqtisodiyoti va atrof-muhit resurslari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish uchun qo'llanilib, biosfera, inson yaratgan kapital va ijtimoiy kapitalning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi transdissiplinar modellarni ishlab chiqishga xizmat qildi.

Ushbu metodologik yondashuv turizm va atrof-muhit iqtisodiyotini integratsiyalash, barqaror rivojlanish modellarini ishlab chiqish hamda ekologik siyosatni shakllantirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, u global va mahalliy turizm loyihalarining atrof-muhitga ta'sirini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, atrof-muhit iqtisodiyoti ekologik iqtisodiyotga nisbatan avvalroq shakllangan yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu yo'nalishning ildizlari XIX asrdagi tabiatni muhofaza qilish harakatlariga borib taqaladi. Xususan, qishloq xo'jaligi, baliqchilik hamda o'rmon resurslaridan barqaror foydalanishni ta'minlash masalalari dastlabki



tadqiqotlarning markazida bo'lgan. Keyinchalik Xotelling¹ tomonidan qayta tiklanmaydigan resurslardan optimal foydalanish bo'yicha ilmiy asos ishlab chiqildi.

Mazkur sohaning doirasi vaqt o'tishi bilan kengayib, bozorda sotilmaydigan resurslarni baholash hamda atrof-muhitni ifloslantirish bilan bog'liq muammolarni ham qamrab oldi. Shu bilan birga, ushbu resurslarning barqaror rivojlanishga qo'shayotgan hissasi e'tirof etilib, ularning iqtisodiy qiymatini baholash muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida qarala boshlandi.

Atrof-muhit iqtisodiyotining asosiy vazifasi iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan siyosatni shakllantirish va tahlil qilishdan iborat. Bu yo'nalishda ko'plab muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Pirs va Turner², shuningdek, Gilpin³ va Holden⁴ kabi olimlar sohaning tarixiy rivojlanishini chuqur o'rganib, uning nazariy asoslarini boyitganlar.

Atrof-muhit iqtisodiyotining yana bir muhim jihati shundaki, u bozor mexanizmlarini takomillashtirish va resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Shuningdek, resurslarni taqsimlash bilan bog'liq nizolarni hal etishda mulk huquqlarining aniqligini ta'minlash zarurligini asoslab beradi. So'nggi yillarda bioxilma-xillikning iqtisodiy hamda inson hayoti uchun ahamiyatini e'tirof etish orqali ushbu sohaning tadqiqot doirasi yanada kengayib bormoqda.

1979-yilda Atrof-muhit va resurslar iqtisodiyoti uyushmasi (AERE) tashkil etilgani mazkur fanning mustaqil va rivojlangan ilmiy yo'nalish sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Ekologik iqtisodiyot esa atrof-muhit iqtisodiyotining mantiqiy davomchisi sifatida olimlar va iqtisodchilarning atrof-muhit muammolariga bo'lgan qiziqishi natijasida rivojlandi. Ushbu yo'nalishga asos solgan iqtisodchilar qatorida Boulding⁵, Daly⁶ va Shumaxer⁷, shuningdek, tabiiy fanlar vakillari — Karson⁸, Lavlok⁹ va Kostanza¹⁰ kabi olimlarning nomlari alohida e'tirof etiladi. Bu sohaning alohida yo'nalish sifatida shakllanishiga umumiy iqtisodiy tahlilning atrof-muhit masalalarini to'liq qamrab ola olmasligi hamda inson faoliyatining biosferaning ajralmas qismi sifatida qaralishi muhim turtki bo'ldi.

Ekologik iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biri shundaki, u biosferaning aholining ko'payishi va iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ma'lum cheklovlar qo'yishini ilmiy asosda ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, bozor mexanizmlarining to'liq samarali ishlamasligi natijasida yuzaga keladigan atrof-muhit muammolarining oldini olishda davlat va jamiyatning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik iqtisodiyotning ilmiy yo'nalishi turizm tadqiqotlari va barqaror rivojlanish konsepsiyalarida transdissiplinar yondashuvni mujassam etadi. Ushbu sohaning alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanganligi 1989-yilda Xalqaro ekologik iqtisodiyot jamiyati (ISEE) tashkil etilishi bilan tasdiqlangan.

Yuqorida qayd etilgan ekologik va atrof-muhit iqtisodiyoti elementlari iqtisodiy tizimning ekologik tizim bilan uzviy bog'liqligini, hatto uning biosferaning tarkibiy qismi sifatida qaralishini yaqqol namoyon etadi. Bu yondashuv iqtisodiy tizimning inson va tabiat tizimlari bilan o'zaro munosabatlarini yanada kengroq va chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Ekologik tizimlarni samarali boshqarish turizmning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turizm mahsulotining muhim qismi tabiiy resurslar hisobiga shakllanadi. Mazkur resurslar yetarli darajada boshqarilmagan taqdirda, ularning degradatsiyasi turistik talabning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ekoturizm ushbu jarayonning yaqqol misoli sifatida qaraladi va so'nggi yillarda keng targ'ib etilmoqda. Jumladan, Cater va Cater¹¹ dengiz muhirlari bilan bog'liq masalalarni misol sifatida yoritgan bo'lsa, Fennell¹² ekoturizmning turli shakllari hamda ularning ekologik tizimlarga ta'sirini tizimli ravishda tahlil qilgan.

Ekologik tizimlar va turizm o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, xususan, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanishni ta'minlash masalalari keyingi bo'limlarda batafsil ko'rib chiqiladi. Tabiiy kapital (Kn), inson yaratgan kapital (Km) va ijtimoiy kapital (Kh) bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar

1-jadvalda keltirilgan.

- 1 Hotelling, H. (1931). The economics of exhaustible resources. *Journal of Political Economy*, 39, 137–175.
- 2 Pearce, D. W., & Turner, R. K. (1990). *Economics of Natural Resources and the Environment*. London: Harvester Wheatsheaf.
- 3 Gilpin, A. (2000). *Environmental Economics: A Critical Overview*. Chichester: Wiley.
- 4 Holden, A. (2007). *Environment and Tourism*. 2nd ed. London: Routledge.
- 5 Boulding, K. E. (1966). The economics of the coming spaceship earth. In H. Jarrett (Ed.), *Environmental Quality in a Growing Economy*. Baltimore: Johns Hopkins University Press.
- 6 Daly, H. (1977). *Steady-State Economics*. San Francisco: Freeman.
- 7 Schumacher, E. F. (1973). *Small Is Beautiful: A Study of Economics as if People Mattered*. London: Blond & Briggs.
- 8 Carson, R. (1962). *Silent Spring*. Boston: Houghton Mifflin.
- 9 Lovelock, J. (1979). *Gaia: A New Look at Life on Earth*. Oxford: Oxford University Press.
- 10 Costanza, R. (1984). Natural resource valuation and management: Towards an ecological economics. In A. M. Jansson (Ed.), *Integration of Economy and Ecology: An Outlook for the Eighties* (pp. 7–18). Stockholm: University of Stockholm Press; Costanza, R. (1989). What is ecological economics? *Ecological Economics*, 1, 1–17.
- 11 Cater, C., & Cater, E. (2007). *Marine Ecotourism: Between the Devil and the Deep Blue Sea*. Wallingford: CABI.
- 12 Fennell, D. A. (2007). *Ecotourism*. 3rd ed. London: Routledge.



1-jadval. Biosfera, inson yaratgan kapital va ijtimoiy kapitalning strukturasi hamda ustuvor jihatlari

Boʻlimlar	Kichik boʻlimlar
Ustuvorliklar	Ekosentrik
	Texnosentrik
Biosfera	Atmosfera
	Litosfera
	Gidrosfera
Biosferaning mazmuni	Tabiiy resurslarning boyligi
	Himoya tizimlari
	Assimilyatsiya qobiliyati
	Biologik xilma-xillik
	Ekologik tizimlar
Inson yaratgan kapital	Infratuzilma
Jahon miqyosidagi tuzilmalar	Siyosiy
	Huquqiy
	Iqtisodiy
	Ijtimoiy-madaniy
Mahalliy, mintaqaviy va milliy tuzilmalar	Siyosiy
	Huquqiy
	Iqtisodiy
	Ijtimoiy-madaniy
Ijtimoiy-madaniy harakatlar	Oilaviy
	Jamiyatga foydali harakatlar
Foydalanuvchilar / xonadonlar	Shaxsiy ehtiyojlar

Biosfera va uning tarkibiy ekologik tizimlarining atrof-muhit muammolarini iqtisodiy tahlil qilishdagi ahamiyati, avvalo, tabiiy resurslarning roli va ularning qiymati (Kn) hamda barqarorlik masalasiga qaratilayotgan e'tibor bilan belgilanadi. Ushbu yondashuvlarni juda zaifdan juda kuchligacha bo'lgan spektr ko'rinishida ifodalash mumkin.

Ekologik iqtisodiyotning metodologiyasi ko'p fanlarni qamrab oluvchi transdissiplinar yondashuvga asoslanadi. U biologiya, ekologiya, fizika, siyosatshunoslik, sotsiologiya va axloq kabi fan sohalarini o'z ichiga oladi. Atrof-muhit iqtisodiyoti esa o'zining nazariy asoslarini an'anaviy iqtisodiy tahlildan oladi va asosan spektrning texnosentrik qismida shakllangan yo'nalish sifatida qaraladi.

Ekologik va atrof-muhit iqtisodiyoti ko'plab jihatlar bo'yicha bir-biriga yaqinlashadi. Ekologik iqtisodiyot ko'pincha atrof-muhit iqtisodiyotining tahliliy usullaridan foydalanadi. Biroq, ekologik iqtisodiyot biosferani muhofaza qilishga ustuvor ahamiyat beradi va o'z maqsadlariga erishishda ko'proq yuqoridan pastga yo'naltirilgan yondashuvga tayanadi. Atrof-muhit iqtisodiyoti esa pastdan yuqoriga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llab, iqtisodiy tizimni biosferaning tarkibiy qismi bo'lgan kichik tizim sifatida talqin etadi.

Har ikki sohada ham asosiy maqsad barqaror rivojlanishni ta'minlashdan iborat. Barqarorlik konsepsiyasi sxematik tasvirlarda biosferadan yuqoriq darajada joylashtiriladi, chunki u inson faoliyatining ustuvor maqsadi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, mazkur ikki yo'nalishning yondashuvlari ekologik muammolarni hal etishda turli strategiyalardan foydalanilishini ko'rsatadi (2-jadval).



2-jadval. Ekologik va iqtisodiy tizimlarning ustuvorliklari hamda boshqaruv mexanizmlari

Kategoriya	Mazmuni
Resurslardan foydalanish	Qayta tiklanmaydigan va tiklanuvchi resurslardan oqilona foydalanish; ifloslanishni kamaytirish; qayta ishlashni kengaytirish; mahsulotlarning xizmat muddatini uzaytirish.
Bozor va nobozor vositalari	Bozor vositalari: savdolashuv mexanizmlari, grantlar, kvotalar, standartlar. Nobozor vositalari: qonunchilik, mulk huquqlarini aniqlashtirish, davlat tomonidan tartibga solish.
Ekologik siyosat	Global, milliy va mahalliy darajalarda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan siyosatlar; ustuvor yo'nalishlar — resurslarni saqlash, ifloslanishni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish.
Qiymatlarni baholash usullari	Moliyaviy usullar: to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita qiymatni baholash. Nomoliyaviy usullar: ishtirokchilar soni, faoliyat turlari, standartlar va vaqt mezonlari asosida baholash.
Bozor muvaffaqiyatsizligi	Ifloslanish va resurslarning ortiqcha iste'moli; hozirgi va kelajak avlodlar o'rtasida adolatli taqsimotni ta'minlash zarurati; qiymatni aniqlashdagi qiyinchiliklar, jumladan, "bepul foydalanuvchilar" muammosi.
Iqtisodiy tizim va biosfera	Biosferaning iqtisodiy tizim bilan uzviy bog'liqligi; ekologik iqtisodiyotning maqsadi — tabiatni muhofaza qilish, resurslarni oqilona taqsimlash va barqaror rivojlanishga erishish.
Iqtisodiy va inson faoliyati	Bozor mexanizmlari (narxlar, resurslar taqsimoti, texnologik taraqqiyot) orqali resurslardan foydalanish; iqtisodiy rivojlanishning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan choralar.
Umumiy yondashuvlar	Ekologik iqtisodiyotning transdissiplinar yondashuvi; ekologik tizimlarni saqlash, iqtisodiy rivojlanish va biologik xilma-xillikni ta'minlash; zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuv.

Ushbu jadval ekologik iqtisodiyotning asosiy tushunchalari, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik vositalar, bozor muvaffaqiyatsizligi hamda atrof-muhitga yo'naltirilgan siyosatlarni tizimli ravishda aks ettiradi. Uning asosiy maqsadi inson faoliyatining biosferaga ta'sirini anglash va ushbu jarayonlarni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida yo'naltirishdan iborat.

Kapitalni baholashning bir nechta muhim sabablari mavjud. Birinchidan, tanlov zarurati cheklangan resurslar sharoitida muqarrar bo'lib, bu muayyan loyihada foydalanilgan resurslarning imkoniyat xarajatlarini aniqlashni talab etadi, ya'ni resurslar boshqa maqsadlarda qo'llanilganda yuzaga keladigan foyda va xarajatlar solishtirma tarzda baholanadi. Ikkinchidan, xususiy va davlat sektorlari doirasidagi loyihalar kutilayotgan foyda va xarajatlar nisbatini hisobga olgan holda baholanishi lozim, bunda loyiha sof foyda keltirishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlikning asosiy sharti hisoblanadi. Uchinchidan, bir nechta muqobil loyihalar mavjud bo'lgan sharoitda ularni reytinglash tizimi orqali baholash talab etiladi va eng yuqori sof foyda yoki eng katta iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan loyihalar ustuvor hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilda ijtimoiy va tijorat baholash o'rtasida muhim farqlar mavjud, chunki ular turli mezonlarga asoslanadi. Ijtimoiy baholash farovonlik iqtisodiyoti tamoyillariga tayanib, jamiyat uchun umumiy foyda va zararlarni, shuningdek, daromad hamda boylikning qayta taqsimlanishini hisobga oladi va bozor yetishmovchiligi (market failure) oqibatlarini yumshatishga qaratiladi. Tijorat baholash esa asosan loyihaning moliyaviy jihatdan foydaliligi aniqlashga yo'naltiriladi, bunda investitsiyalardan olinadigan daromad tashqi bozor foiz stavkalaridan yuqori bo'lishi talab etiladi. Shu bilan birga, xususiy sektor loyihalari ko'pincha ijtimoiy oqibatlar, atrof-muhit va barqarorlik masalalariga sezilarli ta'sir ko'rsatsa-da, ushbu omillar tijorat baholash jarayonida har doim ham to'liq inobatga olinmaydi.

Turizm sohasida yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdan avval ularning atrof-muhitga ta'siri, mahalliy aholining farovonligi hamda umumiy barqaror rivojlanishga qo'shadigan hissa kompleks tarzda baholanishi zarur. Xususan, yangi dam olish zonalarini barpo etish jarayonida ekologik standartlarga qat'iy rioya qilinishi, tabiiy muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada atrof-muhit va ekologik iqtisodiyotning turizm sohasida qo'llanilishi hamda ularning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm infratuzilmasi va ekoturizm loyihalari biosfera, inson yaratgan kapital hamda ijtimoiy kapitalning uzviy birligi asosida rivojlanishi



lozim. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun resurslardan oqilona foydalanish, ifloslanishni kamaytirish hamda ekologik va bozor vositalari orqali muvofiq siyosatlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik iqtisodiyot va atrof-muhit iqtisodiyoti transdissiplinar yondashuv asosida turizm sohasidagi iqtisodiy jarayonlar va ekologik tizimlarni integratsiyalash imkonini beradi. Ushbu yo'nalishlarning nazariy va amaliy jihatlarini resurslarni baholash, bozor muvaffaqiyatsizligi muammolarini bartaraf etish hamda barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, ekologik va iqtisodiy usullarni birlashtiruvchi integratsiyalangan modellar turizm loyihalarining atrof-muhitga ta'sirini ilmiy asosda baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, turizmga barqaror rivojlanishga erishish uchun resurslarning imkoniyat xarajatlari, ijtimoiy va tijorat baholash mezonlarini kompleks tarzda hisobga olish zarur. Yangi infratuzilma obyektlari va dam olish zonalarini barpo etishda atrof-muhit standartlariga rioya etilishi hamda mahalliy aholining farovonligi inobatga olinishi lozim. Bu esa turizm sohasida ekologik va iqtisodiy omillar o'rtasida samarali muvozanatni ta'minlashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, turizmga ekologik va atrof-muhit iqtisodiyotining integratsiyalangan modeli resurslardan oqilona foydalanish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va biosfera bilan uyg'unlashgan iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda samarali ilmiy-amaliy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv turizm sektorida barqarorlikni mustahkamlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aliqulov, S.A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: IDEAL PRESS, 2025-yil. – 718 bet.
2. Aliqulov, S.A., Qo'ziboyev, B. Institutsional iqtisodiyot. Darslik. Toshkent: IDEAL PRESS, 2025-yil. – 632 bet.
3. Boulding, K.E. (1966). The economics of the coming spaceship earth. In: Jarrett, H. (ed.), Environmental Quality in a Growing Economy. Baltimore: Johns Hopkins University Press.
4. Carson, R. (1962). Silent Spring. Boston: Houghton Mifflin.
5. Cater, C., Cater, E. (2007). Marine Ecotourism: Between the Devil and the Deep Blue Sea. Wallingford: CABI.
6. Costanza, R. (1984). Natural resource valuation and management: towards an ecological economics. In: Jansson, A.M. (ed.), Integration of Economy and Ecology: An Outlook for the Eighties. Stockholm: University of Stockholm Press, pp. 7–18; Costanza, R. (1989). What is ecological economics? Ecological Economics, 1, pp. 1–17.
7. Daly, H. (1977). Steady-State Economics. San Francisco: Freeman.
8. Fennell, D.A. (2007). Ecotourism. 3rd ed. London: Routledge.
9. Gilpin, A. (2000). Environmental Economics: A Critical Overview. Chichester: Wiley.
10. Holden, A. (2007). Environment and Tourism. 2nd ed. London: Routledge.
11. Hotelling, H. (1931). The economics of exhaustible resources. Journal of Political Economy, 39, pp. 137–175.
12. Lovelock, J. (1979). Gaia: A New Look at Life on Earth. Oxford: Oxford University Press.
13. Pearce, D.W., Turner, R.K. (1990). Economics of Natural Resources and the Environment. London: Harvester Wheatsheaf.
14. Schumacher, E.F. (1973). Small Is Beautiful: A Study of Economics as if People Mattered. London: Blond & Briggs.
15. Taniyev, A.B. Milliy turizm xizmatlari bozorida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2025-yil. – 192 bet.
16. Taniyev, A.B. Turizmga soliqlarning ta'siri. Monografiya. Toshkent: "NIF MSH" MChJ, 2024-yil. – 189 bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>